

AQLI ZAIF BOLALARNI O'RGANISH ,TARBIYA VA TA'LIM MANBAI

Qo'chqorova Gulnoza

Axborot texnologiyalari va menejment unversiteti

Maxsus pedagogika Defektalogiya yo'nalishi fakulteti talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada aqli zaif bolalarni ta'lim tarbiya berish haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlari: Oligofrenopedagogika, emotsiya,ta'lim tarbiya,metodlashtirish ,korreksiya, individual, yondashuv.

Defektalogiyani yo'nalishlashkardan biri bo'lgan eng asosiy tamoyillardan biri bu Oligofrenopedagogik bo'lib bunda bolalar aqli zaif bolalar kiradi oligofrenopedagogika grek tilida "oli-gos"-kam,"fren"-aql degani ma'noni anglatadi . Oligofrenopedagogika-aqli zaif bolalarni tarbiyalash va o'qitish haqidagi fan bo'lib ,defektalogiyaning bir qismi hisoblanadi. Pedagogikaning umumpedagogik va didaktik tamoyillarni qo'llash aqli zaif bolalar ta'lim -tarbiyasi o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi. Ta'limiy materiallarni tanlash ,mehnat tayyorgarligini aniqlash ,aqli zaif bolalarni jismoniy rivojlantirish ishlari tuzatish mazmunini kasb etishi kerak. Tuzatish (korreksiya) deganda aqli zaif bolalarning jismoniy va ruhiy nuqsonlarni to'g'irlash ,yumshatish ,hayotga moslashtirish tushuniladi. Tuzatish ishlarida nuqsonli bolaning rivojlanish imkoniyatlariga asoslanadi. Oligofrenopedagkika maorif xodimlarini ,onalarni defektalogiya fakulteti talabalarini yordamichi maktablardagi ta'lim tarbiya ishining o'ziga xos tomonlari ,aqli zaif bolalarning bilim egallash xususiyatlari haqidagi tegishli ma'lumotlar bilan qurollantiradi . Har bir fanda bo'lganidek oligofrenopedagogika ham o'ziga xos rivojlanish ,shakillanish tarixiga ega. Aqli zaif bolalar ta'lim tarbiyasi masalalari bilan shug'ullanish ishlari boshlanganiga 200yildan oshgan bo'lsada ,bir tizimda atroflicha bir butun tugallangan ishlar XXasr boshlariga to'g'ri keladi . Aqli zaif bolalar (yoki intellektual nogironligi bo'lgan bolalar)-bu bolalar intellektual rivojlanishdagi kechikishlar yoki cheklovlar bilan bo'liq turli muamolarni boshidan kechiradigan shaxslar . Ularning ta'lim olish jarayoni o'zgacha yondashuvini talab qiladi ,chunki ular o'rganish jarayonida ba'zi qiyinchiliklarga duch keladilar . Shunday bo'lsada ,to'g'ri metodikalar, individual yondashuv va moslashtirilgan ta'lim dasturlari orqali aqli zaif bolalarga ta'lim berish mumkin. Aqli zaif bolalar mantiqiy fikrlash muamoni halt qilish va qaror qabul qilishda kechikishlarni boshdan kechirishi mumkin . Bu ularga

ma'lumotlarni o'zlashtirishda va dastlabki ko'nikmalarni rivojlantirishda qiyinchiliklar yaratadi. Shuning uchun, ularning ta'limi individual tarzda tashkil etishi kerak. Aqli zaif bolalar ko'pincha boshqaruv va ijtimoiy ko'nikmalarda ham zaif bo'lishadi . Bu ta'lim jarayonida alohida yondashuv talab qiladi. Ularni o'rgatishda ijtimoiy va hissing rivojlanishni ham hisobga olish zarur. Har bir bola o'ziga xos va individual tarzda o'rganadi . Shuning uchun, ta'limda individual yondoshuvni qo'llash juda muhimdir. O'qtuvchi bolaga moslashgan vaqti vaqti bilan tekshirilgan o'quv metodlarini tanlashi zarur. Aqli zaif bolalar uchun turli ta'lim manbalari mavjud . Ular asosan quydagi yo'nalishlarda bo'lishi mumkin. Spetsializatsiya qilingan o'quv dasturlari . Aqli zaif bolalar uchun maxsus ishlab chiqarilgan o'quv dasturlari mavjud . Bu dasturlar ,ko'pincha o'qish ,yozish,matematikani o'rganish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlanishga qaratilgan . Mamlakatimizda aqli zaif bolalar bilan tarbiyaviy ishlar ta'lim va sog'liqni saqlasj tizimdagi maxsus maktabgacha ta'lim va maktab muassasalarida olib borilmoqda. Markaziy nevr sistemasi chuqur shikaslangan bolalar ijtimoiy himoyadagi Mehribonlik uylarida bo'lib,ularda ham maxsus dastur asosan ta'lim-tarbiya olmoqda . O'z vaqtida va to'g'ri tashkil etilgan yordam tufayli ushbu toifadagi alohida yordamga muhtoj bolalar keyinchalik yaxshi rivojlanib ketib ,maktabni bitirgach oliy o'quv yurtlarda ham muvaffaqiyatli ta'lim oladilar . Yordamchi maktablardagi ta'limning umumiy vazifalari bilan birga olib boriladi . Shu sababli yordamchi maktablardagi ta'limning asosiy , zaruriy xususiyatlaridan biri uning nuqsonni tuzatishga yo'nalganligi bo'lsa, ikkinchi xususiyati , uning bolaning rivojlanishda o'ziga xos amalga oshirilishidir .

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Vlasova. T. A., Pevzner. M. S. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar haqida o'qtuvchi-M.,1980
2. "Alohida yordamga muhtoj bolalarni tarbiyalashda olia va maktab hamkorligi" ilmiy -metodik to'plami, T-2013
3. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik Ibodullayev Z T. Iqtisodiyot moliya 2008